

ANTHROPOGENIC FACTORS AFFECTING THE DESERTIFICATION OF THE DESERTS OF CENTRAL FERGANA

Urayimjon Sh. Uktamov
Andijan State Pedagogical Institute
Andijan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Central Fergana, deserts, economic factor, soil cover, agriculture, erosion, biological diversity, settlement, plant, animal, tree, shrub, defoliation, edificators, flora and fauna.

Received: 11.02.24

Accepted: 13.02.24

Published: 15.02.24

Abstract: The article describes the anthropogenic factors influencing the desertification of the deserts of Central Fergana. Also, as a result of the exploitation of the deserts of Central Fergana, the process of desertification occurs as a result of a sudden loss of soil cover, natural species of flora and fauna.

MARKAZIY FARG'ONA CHO'LLARINING CHO'LANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ANTROPOGEN OMILLAR

Urayimjon Sh. Uktamov
Andijon davlat pedagogika instituti
Andijon, O'zbekiston

AQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Markaziy Farg'ona, cho'llar, iqtisodiy omil, tuproq qoplami, qishloq xo'jaligi, eroziya, biologik hilma hillik, axoli punkiti, o'simlik, hayvonot, daraxt, buta, defilyatsiya, edifikatorlar, flora va fauna.

Annotatsiya: Maqolada Markaziy Farg'ona cho'llarining cho'llanishiga ta'sir etayotgan antropogen omillar haqida yoritilgan. Shuningdek Markaziy Farg'ona cho'llarining o'zlashtirilishi natijasida tuproq qoplami, o'simlik va hayvonot dunyosining tabiiy tarqalgan turlarining keskin yo'qolib borilishi natijasida cho'llanish jarayoni vuzudga kelmoqda.

АНТРОПОГЕННЫЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ОПУСТЫНИВАНИЕ ПУСТЫНЬ ЦЕНТРАЛЬНОЙ ФЕРГАНЫ

Урайимджон Ш. Уктамов
Андижанский государственный педагогический институт
Андижан, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Центральная Фергана, пустыни, хозяйственный фактор, почвенный покров, земледелие, эрозия, биологическое разнообразие, населенный пункт, растение, животное, дерево, кустарник, дефолиация, эдификаторы, флора и фауна.

Аннотация: В статье описаны антропогенные факторы, влияющие на опустынивание пустынь Центральной Ферганы. Также в результате эксплуатации пустынь Центральной Ферганы происходит процесс опустынивания в результате внезапной утраты почвенного покрова, естественных видов флоры и фауны.

KIRISH

Markaziy Fargʻona choʻllarining choʻllanishining asosiy sabablari tabiiy va antropogen omillar, yaʼni inson faoliyati hal qiluvchi ahamiyatga ega. Markaziy Fargʻona hududining choʻllanish jarayonlariga taʼsir etayotgan antropogen omillar bir necha guruhlariga boʻlishimiz mumkin. Eng asosiysi esa iqtisodiy va ijtimoiy omillardir.

ASOSIY QISM


Hozirgi kunda Markaziy Fargʻona hududining choʻllanishiga asosiy omil bu **iqtisodiy omillar** hisoblanadi. Iqtisodiy omillar Markaziy Fargʻona choʻl hududining kengayishiga eng kuchli taʼsir koʻrsatib kelmoqda. Choʻllanishning kengayib va rivojlanib borishiga koʻplab oqibatlar, choʻlli hududlarni qishloq xoʻjaligi maqsadidan foydalanish asosida oʻzlashtirish, va ulardan foydalanishning samarasiz usullaridan foydalanish juda katta taʼsir etib kelmoqda.

Qumli choʻllar hududini oʻzlashtirish natijasida, katta maydonlardagi tuproqlar holatining oʻzgarishi, bu esa tuproq qoplamining tarkibiy (mexanik va organik) qismlariga buzilishiga olib keladi. Buning natijasida tuproq eroziyasi (deflyatsiya va suv eroziyasi) jarayonlari rivojlanadi va tuproqning unumdorlik qismi esa yoʻq boʻlib ketishiga olib keladi. Choʻlli hududlarni oʻzlashtirish texnogen landshaftlarning kengayishiga yordam beradi. Masalan sanoat korxonolari, aholi punktlari, transport yoʻllari, elektr uzatish liniyalari tarmogʻi (turli yoʻllar, quvurlar, elektr uzatish liniyalari). Koʻchib yuruvchi texnika va transport vositalari bu yerda tuproq eroziyasi oʻchoqlarining paydo boʻlishiga sabab boʻladi. Sanoat majmualari va aholi punktlari atrofidagi katta maydonlarda choʻl landshaftlarining ishlab chiqarish chiqindilari va maishiy chiqindilar bilan ifloslanishi tobora ortib bormoqda. Texnogen landshaftlar va ularning taʼsir natijasida tabiiy ekotizimlarning maydonini kamaytiradi, bu esa oʻzlashtirilayotgan hududlardagi biologik xilma-xillikning kamayishiga olib keladi (1).

Quyida jahon amaliyotida choʻllanishni tahlil qilishda qoʻllaniladigan iqlim oʻzgarishining antropogen omillar bilan oʻzaro taʼsirining namunaviy sxemasi keltirilgan (3).

Iqlim o'zgarishi va cho'llanish davrida antropogen omillar ta'sirlari o'rtasidagi aloqalar

Inson faoliyati ta'siri



Qishloq xo'jaligi hududlarida tuproqni qayta ishlash va ekinlarni yetishtirishning agrotexnik usullariga to'g'ri rioya qilmasdan yerlarni o'zlashtirish va sug'orish tuproqlarning sho'rlanishiga olib kelmoqda.

Markaziy Farg'ona cho'llari hududlarida joylashgan ko'plab sug'orish inshootlari qishloq xo'jaligining irrigatsiya usullari natijasida tuproqning shamol va suv eroziyasi jarayonlari rivojlanib bormoqda. Sug'oriladigan yerlarning periferiyasi bo'yicha (shu hududning atrofi) kollektor-drenaj suvlarining tashlanishi natijasida cho'llanish, botqoqlanish va tuproqning sho'rlanishi olib keladi.

Markaziy Farg'onaning o'zlashtirilishi natijasida hududda irrigatsiya ham rivojlanib, daryolar oqimini tartibga solish, kanallarning bunyod etilishi va Markaziy Farg'ona suv omborining qurilishi mintaqada 20-25 yil ichida atrof-muhitda tub o'zgarishlarga olib keldi. O'zlashtirilgan hududlarda sug'orish usullaridan noto'g'ri foydalanish natijasida, daryolarning quyi oqimlaridagi tabiatining o'zgarishiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Buning natijasida daryo vodiylari va deltalarining gidrologik rejimi tubdan o'zgaradi, botqoq va o'tloqli yerlar qurishi va hududlarning cho'llanishi natijasida chorvachilik uchun ozuqa ishlab chiqarish keskin kamayib boradi.

Bugungi kunda Markaziy Farg'ona qurg'oqchil zonalarning yaylov mintaqasida cho'llanishning asosiy omili chorva hayvonlarining muttasil ko'p boqilishi ham sabab hisoblanadi. O'simlik qoplaminin siyrakligi va cho'l fitosenozlarining past mahsuldorligi, o'tlayotgan hayvonlar tomonidan o'simliklarning sezilarli darajada nobud qilishi hududlardagi cho'llanish jarayonini tezlashtiradi.

Qishloq xo'jalik hayvonlari haddan tashqari o'tlangan hududlarda fitosenozlarda o'simlik turlari soni 2-4 martaga kamayadi. Cho'llarning biologik xilma-xilligiga noyob va yo'qolib ketish xavfi ostida turgan o'simlik va hayvon turlar kiradi. Shuningdek, yovvoyi va qishloq hayvonlari o'rtasida ma'lum bir raqobat mavjudligi tufayli sodir bo'ladi.

Cho'llanish jarayonining kuchayishida **ijtimoiy omillar** ham muhim rol o'ynaydi. Markaziy Farg'ona cho'l hududlariga yaqin joylashgan aholi punkitlaridagi aholi, turli turdagi yoqilg'i (ko'mir, gaz va boshqalar) bilan kam ta'minlanganligi sababli cho'l hududlaridagi tarqalgan turli o'simlik resurslaridan yoqilg'i sifatida foydalanishga majbur bo'lmoqda. Shu bilan birga, cho'llarning nafaqat daraxtsimon (daraxt va buta) o'simliklari, balki yarim buta (shuvoq) ham katta hajmda yo'q qilinmoqda. Bugungi kunda cho'l hududlarida tarqalgan tuproqlarni himoya qilish funksiyasiga ega bo'lgan cho'l daraxt va buta o'simliklarining yo'q qilinishi deflyatsiyaning rivojlanishiga va hududning tobora qurib ketishiga olib kelmoqda. Cho'l mintaqasining edifikatorlari hisoblangan daraxtlar va butalarning kamayishi ular bilan bog'liq bo'lgan ko'plab boshqa o'simliklarning floradan chiqib ketishiga sabab bo'lmoqda. Noqonuniy

ovchilikdan foydalanish ham cho'llarning hayvonot dunyosiga, biologik xilma-xillikka kuchli salbiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda (2).

XULOSA

Markaziy Farg'ona cho'l fauna va florasida, ayniqsa, aholi punktlariga yaqin hududlaridagi cho'l biotsenozlaridan noqonuniy foydalanish daraxtsimon o'simlik va qimmatbaho hayvon turlari va ularning populyatsiyalari yo'qolib ketish xavfi ostida qolmoqda. Markaziy Farg'ona cho'llari tabiatidan foydalanishning huquqiy jihatlari yer, suv, yer osti boyliklari, o'simlik va hayvonot dunyosi tabiatini muhofaza qilish, cho'llanish jarayonini oldini olish uchun chora tadbirlar ishlab chiqish va ularning bajarilish nazoratini kuchaytirish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Кимберг Н.С. Почвы пустынной зоны Узбекистана. – Ташкент, 1974.
2. Рафиков А.А. Устойчивость аридных геосистем Узбекистана к воздействию антропогенной нагрузки.//Проблемы освоения пустынь. -1992.
3. Чуб В.Е. Исследование пустынных зон Центральной Азии по спутниковой информации // Проблемы освоения пустынь.- 1998.